

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.M.No'monzoda</b>	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	331
<b>F.A.Hamdamova</b>	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni .....	334
<b>M.A.Nishonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi .....	338
<b>A.A.Meliqo'ziyev</b>	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari .....	343
<b>S.S.Asatov</b>	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati .....	346
<b>D.Q.Majidova</b>	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
<b>S.R.Qutlimuratov</b>	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati .....	355
<b>N.U.Jamalova</b>	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
<b>M.A.Matmusayeva</b>	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi .....	365
<b>B.B.Xaitbayeva</b>	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish .....	368
<b>F.A.Ibroximov</b>	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati .....	374
<b>R.B.Tursunov</b>	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish .....	379
<b>D.B.Toshaliyev</b>	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
<b>U.Xolova</b>	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida ) .....	386
<b>S.E.Baymuradova</b>	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
<b>B.M.Qandov</b>	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
<b>A.M.To'rayev</b>	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida .....	400
<b>A.A.Meliqo'ziyev</b>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	404
<b>J.Sh.Mamayusupov</b>	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
<b>Y.S.Sidiqova</b>	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida .....	413
<b>B.X.Karimov</b>	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni .....	418
<b>Y.M.Namozova</b>	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida .....	423



УО'К: 81'42:366.636

**O'YINLARNING LISONIY TALQINIDA MILLIY-MADANIY TUSHUNCHА IFODASI****ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ПОНЯТИЙ В ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ  
ИНТЕРПРЕТАЦИИ ИГР****THE EXPRESSION OF NATIONAL-CULTURAL CONCEPTS IN THE LINGUISTIC  
INTERPRETATION OF GAMES**

**Matmusayeva Muhayyo Azamovna**   
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etish zarurati, til va madaniyat munosabatini yoritish ehtiyoji lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida shakllanishi haqida so'z yuritilgan. Lingvomadaniyatshunoslikni bugungi kunda tilshunoslikning jadal rivojlanayotgan, tilda o'z ifodasini topayotgan va barqarorlashayotgan xalqlar madaniyatini kishilar o'rtasidagi munosabatlarning muayyan bir shakli sifatida tadqiqi xususiyatlari yoritilgan.

**Аннотация**

В данной статье говорится о необходимости исследования национально-культурных характеристик языковых единиц и о потребности в изучении взаимосвязи между языком и культурой, что привело к формированию лингвокультуры как отдельной области. Рассматриваются особенности лингвокультурологических исследований как развивающейся области, изучающей культуры народов, находящих свое выражение в языке и стабилизирующихся как определенная форма человеческих отношений.

**Abstract**

This article discusses the necessity of investigating the national-cultural characteristics of linguistic units and the need to explore the relationship between language and culture, which has led to the formation of linguoculturology as a distinct field. It examines the characteristics of linguistic and cultural studies as an emerging area that studies the cultures of peoples expressing themselves in language and stabilizing as a specific form of human relationships.

**Kalit so'zlar:** til va madaniyat, xalqlar madaniyati, munosabatlар.

**Ключевые слова:** язык и культура, культуры народов, отношения.

**Key words:** language and culture, cultures of peoples, relationships.

**KIRISH**

Maktabgacha ta'limga sohasida qo'llaniladigan o'yin nomlarini lingvomadaniy jihatdan tahlil qilishda nomlardagi milliylik, xalq qadriyatlari bilan bog'liq jihatlar e'tiborga olinadi. Maktabgacha ta'limga terminologiyasida o'yin yetakchi komponent sanalib, beshta rivojlanish sohasi faqat o'yin orqali shakllantiriladi. Ta'kidlash joizki, o'yin nomlari lingvomadaniyatda realiyalar sifatida talqin etilgan. Ba'zi atamalarda lingvomadaniy yondashuvni kuzatish mumkin. Masalan, maktabgacha ta'limga 2006-yilgacha amal qilgan "Uchunchi ming yillik bolası" dasturida nogiron bolalar o'yinlari atamasi mavjud edi. Keyingi "Bolajon" dasturida esa imkoniyati cheklangan bolalar atamasi qo'llangan. 2018-yildan amalda qo'llanilayotgan "Ilk qadam" davlat dasturida bolalarning inkluziyi ta'limi, bola inkluziyasi, alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalar o'yinlari kabi atamalar qo'llanilmoqda. Bundan ko'rindiki, maktabgacha ta'limga shaxs omili ustuvor masala sanaladi. Bu esa maktabgacha ta'limga atamalarining nomlanish jarayoni lingvomadaniy yondashuvga amal qilayotganidan dalolat beradi. Bolaga nogiron deb qarash uni kamsitish belgisi ekanligidan nogiron bolalar o'yinlari atamasini imkoniyati cheklangan bolalar o'yinlari almashtirildi. Biroq sohaning rivojlarinishi, insonparvarlashuvi sabab, shuningdek, ba'zida insonning ayrim tabiiy nuqsonlari yoki nosog'lom insonlar sog'lom kishilarga nisbatan ko'proq yutuqlarga erishganligi aniqlangandan so'ng imkoniyati cheklangan bolalar atamasi bolalarning inkluziyi ta'limi, bola inkluziyasi, alohida

*ta'limga ehtiyoji bor bolalar nomiga o'zgartirildi.* Bu nomlanishdagi evfemizmni, ya'ni voqelikni yumshatib aytishni ko'rsatadi. Zero dunyoda imkoniyati cheklangan bolaning o'zi yo'q. Chunki Yaratguchi har bir bolaga minglab imkoniyatlarni hadya etgan, uni kashf etish jamiyatning vazifasidir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotlarda “XX asr so'ngida tilga madaniyat mahsuli”, madaniyatning tarkibiy qismi va mavjud bo'lishlik sharti sifatida qaralgan” ligi e'tirof etildi[1]. Xususan, lingvokulturologiya bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar professor D.Xudayberganova tomonidan olib borilib, “ularda tilimizning milliy xarakter, urf-odat, qadriyat va an'analarimiz bilan bog'liq jihatlari haqida nazariy fikrlar bildirilganki, ularni lingvokulturologiya nazariyasiga oid qarashlarning ilk namunalari sifatida baholash mumkin.

Olma S.M.Mo'minovning “O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbeklarning o'ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan taddiq etilgan”ligini misollarda izohlaydi [2]. U tilning lingvomadaniy jihatlariga e'tiborni qaratib, lingvokulturologiya tilshunoslikning alohida mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarda taraqqiy etganligi, “lingvokulturologiya” atamasi V.N.Teliya rahbarligida Moskva frazeologik maktabidagi ilmiy taraqqiyot natijasida paydo bo'lganligini e'tirof etadi hamda Sh.Safarov, M.X.Hakimov, N.Mahmudov, S.M.Mo'minov, E.Begmatov, Sh.Usmonova, Y.Odilovlarning lingvokulturologiya xususidagi ilmiy qarashlarini tahlil qiladi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, hozirda matn “madaniyat mahsuli”, madaniy qadriyatlarning tarkibiy qismi, madaniy kodlarning rivojlanish materiali, manbasi sifatida qaraladi. Madaniyat markazida lisoniy shaxs, ya'ni fikrlovchi, munosabat bildiruvchi milliy-madaniy prototip turadi.

Har bir xalq tili o'zi uchun aziz, noyob fenomen, chunki u millatning qadriyati va madaniyatini so'zlata oladi.

1. Amerika tilshunosi E.Sepirning fikriga ko'ra, til madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda rivojlanadi, uni ifoda etadi va madaniyat ravnaq topishida asos bo'lib xizmat qiladi[3]. Ma'lumki, til doimiy harakatda bo'lib, u muayyan til egalarining tarixi va madaniyatining ajralmas qismi, millat, xalq madaniyatining ko'zgusidir. “Zero, har qanday madaniyat tilda namoyon bo'ladi, tilda o'zining moddiy qobig'ini topishi bilan birga, atrof-muhit ta'sirida taraqqiy etib, o'zgarib boradi. Turli millatlar madaniyati bir-biridan dastlab, voqelikni moddiy va ma'naviy jihatidan qanday o'zlashtirishi jihatidan ajralib turadi” [4]. Til birlıklarining milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etish zarurati, til va madaniyat munosabatini yoritish ehtiyoji lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi. Lingvomadaniyatshunoslikni bugungi kunda tilshunoslikning jadal rivojlanayotgan, tilda o'z ifodasini topayotgan va barqarorlashayotgan xalqlar madaniyatini kishilar o'rtaсидаги munosabatlarning muayyan bir shakli sifatida tadqiq qilinayotgan yangi yo'nalish sifatida talqin qilish mumkin.

N.M.Mahmudovning yozishicha, “lingvokulturologiya tilni madaniyat hodisasi sifatida o'rganadi. Bu dunyonı milliy til prizmasi orqali o'ziga xos tarzda ko'rish bo'lib, bunda til alohida milliy mentallikning ifodachisi sifatida ishtirok etadi. Bugun lingvokulturologiya rus va boshqa xorijiy tilshunosliklarda alohida lingvistik yo'nalish sifatida shakllandi va rivojlanib bormoqda. Vazifasi til va madaniyat, til va etnos, til va mentalitet o'rtaсидаги o'zaro munosabatni tavsiflash va o'rganishdan iborat bo'lgan bu yo'nalish o'zbek tilshunosligida ko'proq qiyosiy aspektidagi izlanishlarda endi-endi boshlanmoqda”[5].

G'.Ismoilovning ta'kidlashicha, tadqiq jarayonida madaniyatning uchta o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan: 1) birinchi xususiyat sistemali xarakterga ega bo'ladi: “Madaniyat ijtimoiy ahamiyatga ega dasturlar, me'yorlar, etalonlar, paradigmalar, faoliyat, xulq-atvor va muloqot tizimi bo'lib, ular mazkur sohalarning yakka, diskretik aktlarini o'zaro muvofiqlashtiradi va shu tariqa ijtimoiy tizimchalar va jamiyatning yaxlitligini ta'minlaydi” 2) u kumulyativ xususiyatiga ega: “Madaniyat – bu xalqning o'ziga xos tarixiy xotirasidir”. 3) u yoki bu jamoaga xos lisoniy va madaniy an'analar yordamida muloqot qilish demakdir.

**XULOSA**

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, madaniyatning aniqlangan uchta o'ziga xos xususiyatlariga tushgan bo'lish mumkin: 1) birinchi xususiyat sistemali xarakterga ega bo'ladi: "Madaniyat ijtimoiy ahamiyatga ega dasturlar, me'yorlar, etalonlar, paradigmalar, faoliyat, xulq-atvor va muloqot tizimi bo'lib, ular mazkur sohalarning yakka, diskretik aktlarini o'zaro muvofiqlashtiradi va shu tariqa ijtimoiy tizimchalar va jamiyatning yaxlitligini ta'minlaydi" 2) u kumulyativ xususiyatiga ega: "Madaniyat – bu xalqning o'ziga xos tarixiy xotirasidir". 3) u yoki bu jamoaga xos lisoniy va madaniy an'analar yordamida muloqot qilish demakdir. jamoaga xos lisoniy va madaniy an'analar yordamida muloqot qilish demakdir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – 164 б.
2. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – 44 б.
3. Сепир Э. Избранные труды по языкоznанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 223
4. Сафаров Ш.С. Кв тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 63.\
- 5.Махмудов Н.М. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 2012.

№ 5. 50-55 б